

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**INFERENTIAL AND IMPLICATURE PHENOMENA IN PRAGMATIC INTERPRETATION****Mashkhura Yuldosheva***Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**Head of the Department of Language Learning**Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Namangan**E-mail: yuldoshevamashhura09@gmail.com**ScienceID: FNM-0925-0044**Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: inference, implicature, pragmatics, pragmatic meaning, explicature, communicative intention, Gricean theory, Relevance Theory.

Received: 20.08.26**Accepted:** 21.08.26**Published:** 22.08.26

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of inference and implicature, which are regarded as central concepts of pragmatics, and reveals their interrelation as well as their common and distinctive features, while also explaining their role in the formation of pragmatic meaning. The article examines broad and narrow interpretations of inference and evaluates it as the listener's mental and inferential activity carried out in the process of understanding utterance meaning on the basis of context, communicative situation, and shared knowledge, whereas implicature is characterized as an implicit meaning not directly expressed by the speaker but reconstructed precisely through this inferential process. In addition, the article demonstrates the close connection of implicature with the speaker's communicative intention and substantiates that such factors as the listener's inferential activity, presupposition, context, and speech situation play an important role in the emergence of this phenomenon. As a result, it is concluded that inference and implicature serve as an important theoretical basis not only for pragmatic analysis, but also for uncovering deeper layers of utterance meaning, identifying implicit meanings, and explaining the mechanism of mutual understanding between participants in communication.

INFERENSIYA VA IMPLIKATURA HODISALARINING PRAGMATIK TALQINI

Mashxura Yuldosheva*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**O'zRes IIV Namangan akademik litseyi**Tillarni o'rganish kafedrası boshlig'i**E-pochta: yuldoshevamashhura09@gmail.com**Ilmiy identifikatsiya raqami: FNM-0925-0044**Namangan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: inferensiya, implikatura, pragmatika, pragmatik ma'no, eksplikatura, kommunikativ niyat, Grays nazariyasi, Relevans nazariyasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmatikaning markaziy tushunchalari sanalgan inferensiya va implikatura hodisalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning o'zaro munosabati, umumiy hamda farqli jihatlarini ochib beriladi, shu bilan birga, ushbu hodisalarning pragmatik ma'no hosil bo'lish jarayonidagi o'rni ham izohlanadi. Maqolada inferensiyaning keng va tor ma'nodagi talqinlari yoritilib, u tinglovchining nutq mazmunini anglash jarayonida kontekst, kommunikativ vaziyat va umumiy bilimlarga tayangan holda amalga oshiradigan aqliy-xulosaviy faoliyat sifatida baholanadi, implikatura esa so'zlovchi tomonidan bevosita ifodalanmagan, biroq aynan ana shu inferensial jarayon orqali tiklanadigan yashirin mazmun sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, implikaturaning so'zlovchi kommunikativ niyati bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilib, tinglovchining xulosa chiqarish faoliyati, presuppozitsiya, kontekst hamda nutqiy sharoit kabi omillar mazkur hodisaning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etishi asoslanadi. Natijada inferensiya va implikaturaning nafaqat pragmatik tahlil uchun, balki nutq mazmunining chuqur qatlamlarini ochish, yashirin ma'nolarni aniqlash hamda muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro anglashuv mexanizmini tushuntirish uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi xulosalanadi.

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЯВЛЕНИЙ ИНФЕРЕНЦИИ И ИМПЛИКАТУРЫ

Маишхура Юлдошева*Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,**заведующая кафедрой изучения языков**Наманганского академического лицея МВД Республики Узбекистан*

E-mail: yuldoshevdamashhura09@gmail.com

Научный идентификационный номер: FNM-0925-0044

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инференция, импликатура, прагматика, прагматическое значение, экспликатура, коммуникативное намерение, теория Грайса, теория релевантности.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ явлений инференции и импликатуры как центральных понятий прагматики, раскрываются их взаимосвязь, общие и отличительные особенности, а также объясняется их роль в процессе формирования прагматического значения. Рассматриваются широкая и узкая трактовки инференции, которая определяется как мыслительно-выводная деятельность слушающего в процессе понимания содержания высказывания на основе контекста, коммуникативной ситуации и общих знаний. Импликатура, в свою очередь, характеризуется как скрытое содержание, непосредственно не выраженное говорящим, но восстанавливаемое посредством инференциального процесса. Также раскрывается тесная связь импликатуры с коммуникативным намерением говорящего и обосновывается значимость таких факторов, как выводная деятельность слушающего, пресуппозиция, контекст и речевая ситуация, в возникновении данного явления. В заключение отмечается, что инференция и импликатура являются важной теоретической основой не только для прагматического анализа, но и для раскрытия глубинных смысловых слоёв высказывания, выявления скрытых значений и объяснения механизмов взаимопонимания между участниками коммуникации.

Kirish. Til faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki nutq jarayonida yashirin ma'no, ishora, taxmin va xulosalarni shakllantiruvchi murakkab kommunikativ tizim hamdir. Muloqot davomida so'zlovchi ko'pincha fikrini bevosita emas, balki bilvosita tarzda ifodalaydi, tinglovchi esa aytilgan jumlaning yuzaki mazmunidan tashqari unda yashiringan ma'noni ham anglashga harakat qiladi. Ana shu jarayonda inferensiya va implikatura hodisalari muhim pragmatik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular nutq mazmunining to'liq va samarali idrok etilishida,

kommunikativ niyatning to'g'ri tushunilishida hamda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro anglashuvni ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Zamonaviy pragmatika til birliklarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning nutqiy vaziyatda qanday ma'no kasb etishini ham o'rganadi. Shu nuqtai nazardan inferensiya tinglovchining kontekst, vaziyat, oldingi bilim va muloqot tajribasiga tayangan holda ma'noni anglash jarayonini bildirsa, implikatura so'zlovchi tomonidan bevosita aytilmagan, ammo nutq mazmunidan anglashilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'noni ifodalaydi. Mazkur ikki hodisa o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri nutqni qabul qilish va sharhlash mexanizmini, ikkinchisi esa yashirin ma'no hosil bo'lish usulini yoritadi.

Metod. Tadqiqot nazariy-pragmatik yo'nalishda olib borildi. Maqolada inferensiya va implikatura tushunchalarini izohlashda tavsifiy, qiyosiy, kontekstual-pragmatik va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Tavsifiy usul yordamida inferensiya va implikaturaning asosiy nazariy xususiyatlari tizimlashtirildi. Qiyosiy usul orqali inferensiya va implikaturaning o'zaro umumiy hamda farqli jihatlari aniqlandi. Kontekstual-pragmatik tahlil esa yashirin ma'noning nutq vaziyati, kommunikativ niyat, umumiy bilim va kontekst asosida qanday shakllanishini ko'rsatishga xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy asosini H.P. Graysning ma'no va implikatura haqidagi qarashlari, D. Sperber va D. Vilsonning Relevans nazariyasi, shuningdek, K.Bax va R.M. Harnish, R. Karston, H. Klark hamda M. Haugh kabi tadqiqotchilarning pragmatik yondashuvlari tashkil etdi. Tahlil materiali sifatida inferensiya, kommunikativ ma'no, implikatura, eksplikatura va kommunikativ niyatni yorituvchi nazariy qarashlar hamda maqolada keltirilgan muloqot misollaridan foydalanildi.

Natija. Inferensiya va implikatura masalalari pragmatiklingvistikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki real muloqotda ma'no ko'pincha faqat til birliklari orqali emas, balki kommunikativ vaziyat, ijtimoiy munosabat, nutq ishtirokchilarining umumiy bilim fondi, presuppozitsiya va kontekst asosida shakllanadi. Ayniqsa, kundalik so'zlashuv, badiiy matn, publitsistik uslub hamda rasmiy muloqotda yashirin ma'no qatlamlarini aniqlash inferensiya va implikaturaning pragmatik tabiatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Inferensiya va implikatura tushunchalari pragmatika uchun markaziy ahamiyatga ega. Hatto ular pragmatikaning o'zini ta'riflashda ham qo'llanishi mumkin. So'zlarning ma'nosi ularning o'zidan, ya'ni kodlangan shakldan emas, balki ularning qanday qo'llanilishidan kelib chiqsa, bunday ma'no pragmatik ma'no hisoblanadi. Inferensiya ham, implikatura ham ana shu ikkinchi turdagi ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. Ular bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, aynan bir xil tushunchalar emas. Shu bilan birga, ularni farqlash ham ba'zan qiyin kechadi.

Inferensiya atamasi atama ancha qadimiy bo'lib, kamida XVI asr oxiridan beri qo'llanib keladi. Implikatura esa nisbatan yangi atama bo'lib, u XX asrning ikkinchi yarmida til falsafasida maxsus termin sifatida iste'molga kirgan va hozirgacha shu maqomini saqlab kelmoqda [1, 78].

Inferensiyaning keng va tor ma'nosi. Avvalo inferensiyaning keng va tor ma'nosi o'rtasida farq qilish mumkin. Keng ma'nodagi inferensiya xulosaga olib keluvchi asoslar bilan natijani bog'lash jarayonini bildiradi. Tor ma'nodagi inferensiya esa so'zlovchi aytgan so'zlarda bevosita kodlanmagan, lekin ma'lum bosqichlar orqali anglab olinadigan ma'noni ifodalaydi. Inferensiyaning keng ma'nosi tafakkur va mantiq bilan bog'liq bo'lib, u asosan psixologiya hamda logikada o'rganiladi. Xususan, logikada inferensiyaning bir necha asosiy turi ajratiladi: deduksiya, ya'ni umumiy qoidadan xususiy holatga xulosa chiqarish; induksiya, ya'ni ayrim holatlardan umumiy xulosaga kelish va abduksiya, ya'ni eng maqbul izohni topishga qaratilgan xulosa chiqarish. Shunday qilib, keng ma'nodagi inferensiya har qanday axborotni, jumladan ko'ruv, eshituv va boshqa sezgi orqali olingan ma'lumotlarni ham qamrab oladi. Hatto bunday axborotlar ataylab uzatilmagan bo'lsa ham, ular ma'lumot manbai bo'lishi mumkin [2, 218]. Biz bu raflarni quyidagi jadvalda batafsil izohlashga harakat qildik:

Xususiyat	Keng ma'no	Tor ma'no
 Ta'rif	Natijani asoslar bilan bog'lash jarayoni	So'zlovchi aytgan so'zlarda bevosita kodlanmagan ma'no
 Bog'liqlik	Tafakkur va mantiq	Ma'lum bosqichlar orqali anglab olinadigan
 O'rganiladigan soha	Psixologiya va logikada	So'zlovchi aytgan so'zlarda
 Logikada turlari	Deduksiya, induksiya, abduksiya	Yo'q
 Qamrab oladi	Har qanday axborot	So'zlovchi aytgan so'zlarda bevosita kodlanmagan ma'no

1-chizma. Inferensiyaning keng va tor ma'nolari

Bu farqni tushuntirish uchun mashhur bir misol keltiriladi. Matematik, fizik va muhandis Shotlandiya bo'ylab poyezdda ketayotgan bo'ladi. Muhandis derazadan qarab qora qo'yni ko'radi va "Shotlandiyada qora qo'ylar bor ekan", deydi. Shunda fizik "Aniqrog'i, Shotlandiyada kamida bitta qora qo'y bor ekan", deb tuzatadi. Matematik esa yanada ehtiyotkorlik bilan: "Aniqrog'i,

Shotlandiyadagi bitta qo‘yning bir tomoni qora ekan”, deydi. Bu misolda muhandis induktiv fikrlaydi, ya’ni bir holat asosida umumiyroq xulosa chiqaradi. Fizik esa abduktiv fikrlashga yaqinroq yondashadi, matematik esa ko‘rilgan ma’lumotdan ortiqcha xulosa chiqarmaslikka harakat qiladi. Shu misol inferensiyaning keng ma’noda turli darajadagi xulosa chiqarish jarayoni ekanini ko‘rsatadi [2, 218-220].

Demak, inferensiya keng ma’noda faqat til bilan bog‘liq hodisa emas. U insonning mavjud belgilar va ma’lumotlar asosida ma’no hosil qilishi, xulosa chiqarishi va vaziyatni tushunishi bilan bog‘liq umumiy kognitiv jarayondir. Tor ma’nodagi inferensiya esa aynan nutqiy muloqotda, aytilgan gapning yuzaki shaklidan tashqaridagi ma’noni anglashga xizmat qiladi [3, 94]

Qo‘yning qora juni, albatta, qo‘yning kuzatuvchilarga ataylab ta’sir ko‘rsatishga urinayotganini bildirmaydi. Ya’ni bu holat anglangan holda yuborilgan axborot emas, balki qo‘yning shunchaki tashqi ko‘rinishidir. Shunga qaramay, uning ko‘rinishi kuzatuvchilar uchun ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi va ular shu asosda dunyo haqidagi xulosalarini shakllantiradilar. Bu misol bir xil mavjud ma’lumotdan turli kuzatuvchilar turlicha inferensiya chiqarishi mumkinligini ham ko‘rsatadi [2, 218-220].

Mantiq fanida asosan hukmlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi, kognitiv psixologiya esa inson aynan shu munosabatlarni qanday hosil qilishini tahlil qiladi. Shu bois kognitiv psixologiya inferensiyaning tilga bog‘liq bo‘lmagan ko‘plab turlari bilan ham shug‘ullanadi. Bunga kategoriyalash asosida yuzaga keladigan inferensiyalar, masalan, qorong‘ida mushukni ko‘rib, u yerdan yana mushuklar bo‘lishi mumkin degan xulosaga kelish, yoki ensiklopedik bilimga tayanuvchi inferensiyalar, masalan, farrosh polni supurayotgan bo‘lsa, uning qo‘lida supurgi borligini anglash kabilar kiradi. Shuningdek, bunday inferensiyalar ratsionallik tamoyillari asosida ma’no hosil qilish bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Ana shu oxirgi tur pragmatikadagi inferensiyaga yaqinlashadi va bu tor ma’nodagi inferensiya deb tushuniladi. Shu sababli “pragmatik inferensiya” atamasi ortiqcha emas, chunki inferensiyaning mantiqiy, ensiklopedik va boshqa pragmatik bo‘lmagan turlari ham mavjud.

Inferensiya va implikatura o‘rtasidagi farq. Tor ma’nodagi inferensiya lingvistik pragmatikaning tadqiqot doirasiga kiradi. Chunki lingvistik muloqot pragmatikada odatda ochiq namoyon etilgan, ya’ni maqsadli kommunikativ signal sifatida tushuntiriladi. Bunda nutq so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga ta’sir ko‘rsatish va uning tasavvurlar tizimida muayyan o‘zgarish hosil qilish maqsadida ataylab yaratiladi. Shuning uchun bunday signalning ma’nosi uning o‘zida emas, balki kommunikativ niyat asosida anglanadi[4, 377-388]. Masalan, yo‘l chetida turgan ishchi haydovchilarga qo‘li bilan ishora qilib, “oldinga yuravering” degan ma’noni bildirish uchun qo‘l silkitsa, bu harakat kommunikativ signal bo‘ladi. Chunki haydovchilar bu ishorani ishchining ularga ma’lum ma’no yetkazish niyati bilan bog‘lab talqin qiladilar. Ammo xuddi shu

qo‘l harakati ishchi pashshani quvish uchun qilgan bo‘lsa, u kommunikativ harakat hisoblanmaydi. Demak, kommunikativ inferensiyaning muhim sharti– tinglovchi so‘zlovchining niyatini tan olishi va shu asosda ma‘no hosil qilishi hisoblanadi. Bu masala Grays tomonidan “tabiiy ma‘no” va “tabiiy bo‘lmagan ma‘no” farqi orqali ham tushuntiriladi. Tabiiy ma‘noda biror belgi ma‘lum hodisaning tabiiy ko‘rsatkichi bo‘ladi. Masalan, qizil dog‘lar qizamiqni, qora bulutlar yomg‘irni anglatadi. Bu yerda ma‘no so‘zlovchining niyatiga emas, tabiiy bog‘liqlikka asoslanadi. Tabiiy bo‘lmagan ma‘noda esa ma‘no tinglovchida ma‘lum taassurot yoki tushuncha hosil qilish uchun ataylab yuzaga keltiriladi. Pragmatika uchun aynan shu ikkinchi tur, ya‘ni kommunikativ niyatga asoslangan ma‘no muhimdir [5, 213-223].

Shunday qilib, inferensiya va implikatura o‘rtasidagi farqni tushunishda asosiy nuqta shundaki, inferensiya ma‘noni anglash jarayonini bildiradi, implikatura esa shu jarayon natijasida yuzaga keladigan yashirin ma‘noni ifodalaydi. Ya‘ni inferensiya– bu tinglovchining xulosa chiqarishi, implikatura esa shu xulosa orqali tiklanadigan pragmatik mazmundir [6, 117-134]

“Inferensiya” so‘zi ingliz tilida umumiy qo‘llanadigan atama bo‘lsa, “implikatura” maxsus ilmiy termin hisoblanadi. Uni Grays ma‘noning muayyan bir ko‘rinishini aniq ajratib ko‘rsatish uchun ilmiy muomalaga kiritgan. Graysning ma‘no haqidagi qarashida implikatura so‘zlovchining niyati bilan chambarchas bog‘liqdir. U so‘zlovchi ma‘nosini shunday izohlaydi: so‘zlovchi biror ifodani aytish orqali nimanidir nazarda tutgan bo‘ladi, agar u muayyan tinglovchida ma‘lum javobni yuzaga keltirishni istasa, tinglovchi uning shu niyatini anglab olsa va aynan shu anglash asosida tegishli xulosaga kelinadi. Demak, implikatura oddiy yashirin ma‘no emas, balki so‘zlovchi niyatiga tayangan holda tinglovchi tomonidan anglanadigan ma‘nodir [7, 147-177]. Bu ta‘rifdan ko‘rinadiki, eng muhim narsa– so‘zlovchining tinglovchida ma‘lum tushuncha yoki javob uyg‘otish niyatidir. Tinglovchi amalda aynan kutilgan javobni bersa ham, bermasa ham, so‘zlovchi ma‘nosi mavjud bo‘lishi uchun uning niyati bo‘lishining o‘zi yetarli deb qaraladi. Shu bilan birga, bu yerda so‘zlovchi niyati oddiy istak emas, balki tinglovchi tomonidan tan olinishi kerak bo‘lgan maxsus refleksiv niyat sifatida tushuniladi. Ya‘ni so‘zlovchi nafaqat biror ma‘noni yetkazmoqchi bo‘ladi, balki tinglovchi uning aynan shu niyatini ham fahmlashini ko‘zlaydi [8, 156].

Muhokama. Graysning bunday yondashuvi so‘zlovchi ma‘nosini tinglovchi tan olishi mumkin bo‘lgan ma‘no bilan chegaralaydi. Boshqacha aytganda, bunda asosiy e‘tibor so‘zlovchi tinglovchi anglasin deb ko‘zlagan ma‘noga qaratiladi. Agar tinglovchi so‘zlovchi nutqidan bundan ortiqroq mazmun chiqarsa-yu, lekin bu mazmun so‘zlovchi tomonidan mo‘ljallanmagan bo‘lsa, u holda bu ma‘no Graysning qat‘iy talqinida so‘zlovchi ma‘nosiga kirmaydi. Shunday qilib, so‘zlovchi ma‘nosi Graysda ikki qismga ajraladi: aytilgan ma‘no va implikatsiya qilingan ma‘no. Implikatsiya qilingan ma‘no esa o‘z navbatida odatiy, ya‘ni konvensional implikaturalarga,

muloqot tamoyillari hamda suhbat qoidalari asosida yuzaga keladigan konversatsion implikaturalarga bo‘linadi. Konversatsion implikaturalar ham umumlashgan va xususiy turlarga ajratiladi [9, 41-58]. Bu bo‘linishlarning umumiy jihati shundaki, ularning barchasi so‘zlovchi tomonidan tinglovchi anglasin deb mo‘ljallangan ma’nolar sirasiga kiradi. Grays esa tinglovchi nutqdan mustaqil ravishda chiqarishi mumkin bo‘lgan, lekin so‘zlovchi ko‘zlamagan ma’nolar bilan uncha qiziqmagan. Vaholanki, bunday ma’nolar ham amalda mavjud va keyingi pragmatik yondashuvlarda aynan shunday holatlarni tushuntirishga alohida e’tibor qaratilgan. Demak, implikatura masalasida keyingi nazariyalar Grays modelini kengaytirib, so‘zlovchi niyati bilan bir qatorda tinglovchi tomonidan hosil qilinadigan qo‘shimcha ma’nolarni ham tahlil qilishga intilgan.

Ana shunday keyingi yondashuvlarning biri Relevans nazariyasidir. Ushbu nazariya doirasida eksplikatura va implikatura o‘rtasida muhim farq kiritiladi. Eksplikatura dekodlash va inferensiyaning qo‘shilishi natijasida yuzaga keladigan ma’no bo‘lsa, implikatura esa undan keyingi inferensiyaviy bosqichda hosil bo‘ladigan yashirin mazmundir. Ya’ni tinglovchi dastlab aytilgan gapning aniqroq mazmunini tiklaydi, undan keyin esa undan kelib chiqadigan qo‘shimcha ma’nolarni anglaydi. Shu bois Relevans nazariyasida implikatura inferensiya bilan yanada yaqin bog‘langan holda talqin qilinadi. Bu yo‘nalishdagi asosiy nazariy tadqiqotlar Relevans nazariyasi doirasida olib borilgan. Ushbu nazariyada bizning maqolamiz uchun eng muhim farqlardan biri eksplikatura va implikatura o‘rtasidagi tafovutdir. Eksplikatura dekodlash va inferensiyaning birgalikdagi natijasi hisoblanadi, implikatura esa faqat inferensiya asosida yuzaga keladi. Demak, eksplikatura gapning bevosita ifodalangan mazmunini aniqroq tiklashga xizmat qilsa, implikatura aytilgan mazmundan kelib chiqadigan qo‘shimcha, yashirin ma’noni ifodalaydi.

Ko‘pma’nolilikni bartaraf etish yoki referensiyani aniqlash kabi jarayonlar Relevans nazariyasida eksplikatura tarkibiga kiradi. Implikaturalar esa eksplikaturaga kontekst unsurlari qo‘shilishi orqali hosil bo‘ladigan mustaqil mazmunlardir. Bunda tinglovchi so‘zlovchi o‘z nutqini optimal relevansga erishish maqsadida tuzgan, deb taxmin qiladi. Ya’ni u nutqdan eng katta kognitiv samara olish, buning uchun esa eng maqbul talqinni topish asosida xulosa chiqaradi[3, 65].

Masalan, quyidagi muloqotga e’tibor beraylik:

A: Siz Akramdan olgan qarzingizni qaytarishga ulgurdingizmi?

B: Men bankka bormadim.

Bu yerda Bning “Men bankka bormadim” degan javobidan, avvalo, uning moliyaviy muassasa xizmatidan, ya’ni bankdan ham foydalanmaganini anglash mumkin. Bu eksplikatura hisoblanadi. Chunki bunda “bank” so‘zining aynan moliyaviy muassasa ma’nosida tushunilishi, uning xizmat doirasining aniqlanishi va “bankka borish” iborasining pul bilan bog‘liq faoliyat

uchun u yerga yo‘l olish ma’nosida talqin qilinishi talab etiladi. Bular dekodlash va inferensiyaning birlashuvi orqali tiklanadi.

Ammo shu javobdan yana bir yashirin xulosa ham kelib chiqadi, ya’ni Akramga qarzini hali qaytarmagan. Mana shu ikkinchi mazmun implikatura hisoblanadi. Chunki u gapning o‘zida to‘g‘ridan to‘g‘ri aytilmagan, balki tinglovchi tomonidan kontekst va vaziyat asosida inferensiya yo‘li bilan tiklangan. Shunday qilib, Relevans nazariyasida eksplikatura va implikatura o‘rtasidagi farq ma’noning qaysi qismi aytilgan mazmunni aniqlashtirishga, qaysi qismi esa undan tashqaridagi qo‘shimcha xulosani hosil qilishga xizmat qilishiga asoslanadi

Grays modelida “aytilgan ma’no” va “implikasiya qilingan ma’no” o‘rtasida farq qilinsa, Relevans nazariyasida eksplikatura bilan implikatura o‘rtasidagi farq biroz kengroq qo‘llanadi. Biroq har ikkala holatda ham eksplikatura ham, implikatura ham so‘zlovchi tomonidan mo‘ljallangan ma’no doirasiga kiradi. Ya’ni ikkalasi ham tinglovchi tomonidan so‘zlovchining kommunikativ niyatini anglash jarayonida tiklanadi. Shu ma’noda ular Grayscha ma’no tushunchasi bilan bog‘liq holda qoladi [3,48]. Biroq Relevans nazariyasida implikaturalarning o‘z ichida ham yana bir farq ajratiladi. Unga ko‘ra, ayrim implikaturalar kuchli ifodalangan bo‘ladi, ayrimlari esa kuchsiz ifodalangan bo‘ladi. Agar ma’lum bir yashirin ma’no gapning optimal relevansga ega bo‘lishi uchun zarur bo‘lsa, u kuchli implikatura hisoblanadi. Ya’ni tinglovchi aynan shu xulosaga kelmasa, so‘zlovchining gapini to‘liq va maqsadga muvofiq tushungan bo‘lmaydi. Masalan, yuqoridagi misolda Bning “Men bankka bormadim” degan javobidan “B hali Akramga pulni qaytarmagan” degan xulosa chiqarilishi zarur. Aks holda, Bning javobi Aning savoliga to‘liq javob bo‘la olmaydi. Shu sababli bu ma’no kuchli implikatura sanaladi.

Kuchsiz implikatura esa jumladan anglashilishi mumkin bo‘lgan, lekin yagona va majburiy bo‘lmagan yashirin ma’nodir. Ya’ni u so‘zlovchi nutqining optimal relevansini ta’minlashi mumkin bo‘lgan ko‘plab ehtimoliy xulosalardan biridir. Masalan, xotin nonushta paytida eriga: “Bugun kechqurun ishda uzoq qolaman”, desa, bu gap bir nechta turli yashirin ma’nolarni anglatishi mumkin. Jumladan, “meni kutib o‘tirma”, “menga ovqat tayyorlama”, “ovqatni mensiz yeyavering”, “bolalarni ovqatlantir”, “bolalarni uxlatib qo‘y”, “mendan xavotir olma”, “meni qidirib yurma”, “bugun sevimli ko‘rsatuvimizni o‘tkazib yuboraman” kabi mazmunlar anglashilishi mumkin. Demak, bitta gapning o‘zi bir nechta ehtimoliy implikaturalarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur misoldagi ushbu yashirin ma’nolarning barchasi kuchsiz implikaturalar hisoblanadi. Chunki so‘zlovchi ularni birma-bir sanab o‘tishi muhim ham emas, shart ham emas. Hatto ayrim holatlarda bunday ro‘yxatni oldindan to‘liq belgilashning o‘zi ham mushkul bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday nutq tinglovchiga tayyor xulosa bermaydi, balki uni turli mumkin bo‘lgan ma’nolarni o‘zi tiklashga undaydi. Tinglovchi shu ehtimoliy ma’nolardan kamida

ayrimlarini anglagan taqdirda ham, gap o'z kommunikativ maqsadiga erishgan hisoblanadi. Demak, kuchsiz implikaturalarda ma'no bir oz noaniqroq, kengroq va ochiqroq bo'ladi.

Bu holat shuni ko'rsatadiki, implikatura har doim qat'iy va bitta xulosa bilan cheklanmaydi. Aksincha, ayrim vaziyatlarda u bir nechta ehtimoliy ma'nolar doirasini ochib beradi. Relevans nazariyasining muhim jihatlaridan biri ham shundaki, u aynan shu noaniqlik va ko'p ehtimollilikni pragmatik tahlilning tabiiy qismi sifatida qabul qiladi. Shu bois kuchli implikaturalar ma'lum va zarur yashirin ma'noni bildirsa, kuchsiz implikaturalar tinglovchi ongida shakllanishi mumkin bo'lgan bir qancha qo'shimcha ma'nolar majmuasini ifodalaydi[3, 60-65]

Implikaturaning kuchi uning qanchalik darajada aniq belgilanganiga bog'liq deb qaraladi. Vilson va Sperberning ta'kidlashicha, implikatura qanchalik kuchsiz bo'lsa, so'zlovchining uning haqiqiyliги uchun javobgarligi ham shunchalik kamayadi. Hatto ba'zi hollarda implikatura shunchalik noaniq bo'lishi mumkinki, u deyarli yo'qolib ketadi va bunday vaziyatda xulosa chiqarish mas'uliyati asosan tinglovchi zimmasiga o'tadi[3, 70]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, so'zlovchi nutqi bilan kontekstning qo'shilishidan hosil bo'ladigan barcha taxmin va xulosalar implikatura bo'lavermaydi. Faqat so'zlovchi tinglovchi tomonidan anglanishini ko'zlagan ma'nolargina implikatura hisoblanadi. Demak, implikatura inferensiyaga so'zlovchining kommunikativ niyati qo'shilganda yuzaga keladi.

Buni sodda shaklda quyidagicha ifodalash mumkin:



2-chizma. Implikatura = inferensiya + so'zlovchining kommunikativ niyati


Yoki yana ham sodda aytganda, so'zlovchilar yashirin ma'noni nazarda tutadilar, tinglovchilar esa shu ma'noni inferensiya orqali anglaydilar.

Ba'zan so'zlovchi o'z gapi qaysi kontekstda talqin qilinishini ham, undan qanday xulosalar chiqarilishini ham oldindan aniq bilmasligi mumkin. Shunga qaramay, u relevans tamoyiliga rioya qilgan holda gapiradi. Bunday hollarda nutqning o'zi aniq implikatura bermasligi mumkin. Ammo bu undan umuman inferensiya kelib chiqmaydi degani emas. Aksincha, tinglovchi ba'zan so'zlovchi ko'zlamagan yoki hatto aniq tinglovchi bo'lmagan vaziyatlarda ham ma'lum xulosalar chiqarishi mumkin. Relevans nazariyasi buni ham izohlab bera oladi. Chunki unda asosiy narsa—nutqdan olinadigan kognitiv samara bilan uni qayta ishlashga ketadigan kuch o'rtasidagi muvozanatdir [10, 40-46].

Shu sababli inferensiya va implikatura o'rtasida qat'iy farqni saqlash foydalidir. Eng avvalo, so'zlovchi niyat qilmagan inferensiyalar Grayscha ma'no doirasiga kirmaydi. Ya'ni Grays nazariyasida faqat so'zlovchi ko'zlagan va tinglovchi anglashi mo'ljallangan ma'nolar muhim hisoblanadi. Biroq bunday yondashuv tinglovchi tomonidan chiqarilgan, lekin so'zlovchi ko'zlamagan xulosalarning qanday yuzaga kelishini to'liq tushuntirib bermaydi. Relevans nazariyasi esa muloqotni tinglovchi nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqqani uchun, so'zlovchi nutqidan kelib chiqadigan barcha inferensiyalarni, agar ular kognitiv samara va tafakkuriy sa'y-harakat o'rtasidagi muvozanatga mos kelsa, izohlash imkonini beradi [5, 220]. Inferensiya va implikatura o'rtasidagi qat'iy farqni saqlashning yana bir sababi shundaki, implikatura so'zlovchi tomonidan ko'zlangan ma'no bo'lsa, inferensiya tinglovchi tomonidan hosil qilinadigan ma'nodir. Bu ikki hodisa ayrim hollarda bir-biriga mos kelishi mumkin, ammo ular har doim ham to'liq ustma-ust tushmaydi. Masalan, so'zlovchi biror ma'noni nazarda tutishi mumkin, lekin tinglovchi aynan shu ma'noni anglamasligi mumkin. Bunday holatda so'zlovchi o'sha ma'noni implikasiya qilmagan, deb bo'lmaydi. Faqat bu ma'no suhbatdoshlar o'rtasidagi umumiy muloqot zaxirasiga, ya'ni keyingi nutqda tayanch bo'lib xizmat qiladigan umumiy tushuncha doirasiga kirmay qoladi [11, 32]

Agar so'zlovchi tinglovchi uning ma'nosini tushunmaganini sezsa va uni, albatta, anglatmoqchi bo'lsa, u holda o'z fikrini qaytarishi yoki yanada aniqroq ifodalashi mumkin. Aksincha, ba'zan tinglovchi so'zlovchi nazarda tutmagan ma'noni ham chiqarib olishi mumkin. Bu holatda so'zlovchi bunday ma'no uchun javobgar bo'lmaydi, chunki u buni oldindan ko'zlamagan bo'ladi. Biroq agar keyinchalik so'zlovchi tinglovchi shunday xulosa chiqarganini bilib qolsa va bu ma'nodan uzoqlashmoqchi bo'lsa, u buni ochiq aytishi kerak. Aks holda, bu xulosa ham muloqotning umumiy zaxirasiga kirib, keyingi nutqda tayyor ma'no sifatida qabul qilinishi mumkin [11, 36]. Bu holat shuni ko'rsatadiki, so'zlovchi va tinglovchi har doim ham bir xil ma'noni anglamaydi. Aynan shu jihat inferensiyaga asoslangan kommunikativ modelning afzalligini ko'rsatadi. Chunki muloqot ishtirokchilari bir-birining kognitiv muhitini to'liq bilmaydi, faqat taxmin qiladi. Shu sababli ular mavjud bilim, tajriba va shaxsiy imkoniyatlar doirasida ma'no hosil qiladilar.

Inferensiya va implikaturani qanday ajratish kerak?



3-chizma. Inferensiya va implikaturaning farqi

Inferensiya va implikatura jarayon va natija sifatida. Inferensiya va implikaturani tushuntirishda yana bir muhim farqni ajratish mumkin: ular ham jarayon, ham natija sifatida qaraladi. Lyons ta'kidlaganidek, tilshunoslikda ko'plab atamalar shu ikki ma'noda qo'llanadi, lekin har safar aynan qaysi ma'no nazarda tutilayotgani aniq ko'rsatilmaydi. Masalan, Relevans nazariyasida inferensiya atamasi bir tomondan so'zlovchi nutqini kontekst bilan bog'lab, yangi xulosalar hosil qilish jarayonini bildiradi, ikkinchi tomondan esa shu jarayon natijasida yuzaga kelgan real xulosalarning o'zini ham anglatadi. Implikatura esa odatda ana shu natijalarning faqat bir qismi, ya'ni tinglovchi tomonidan anglanadigan va ayni paytda so'zlovchi tomonidan ham ko'zlangan ma'nolar uchun qo'llanadi. Shuning uchun inferensiya jarayon sifatida nafaqat implikaturaga, balki eksplikaturaga ham xizmat qilishi mumkin.

Umumiyroq aytganda, inferensiya jarayon bo'lsa, implikatura ko'proq mahsul, ya'ni natija sifatida tushuniladi. Shu bois ba'zan "inferensial jarayon" atamasi inferensiyani jarayon sifatida, "inferensiya" esa uning natijasi sifatida ajratish uchun ishlatiladi. Yanada tushunish uchun quyidagi misolni keltirib o'tamiz: Mehmon: Choy juda mazali ekan. Uy egasi vaziyatga qarab "yana choy quyib beraymi" degan ma'noni tushunishi mumkin. Bu yerda shu yashirin talab yoki ishorani anglash – inferensiya, "yana choy istayapman" degan yashirin ma'no – implikatura.

Xulosa. Inferensiya va implikatura nutqiy muloqot jarayonida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikki muhim pragmatik hodisadir. Inferensiya tinglovchining aytilgan fikrni shunchaki eshitib qolmasdan, balki uni vaziyat, kontekst, umumiy bilim va muloqot sharoiti asosida tafakkur orqali sharhlashi, ya'ni ma'no ustida aqliy xulosa chiqarish jarayonidir. Implikatura esa ana shu xulosa chiqarish natijasida anglashiladigan, lekin nutqda to'g'ridan to'g'ri ifodalanmagan yashirin mazmundir. Demak, so'zlovchi ko'pincha fikrning hammasini ochiq aytmaydi, tinglovchi esa inferensiya orqali ushbu yashirin qatlamni tiklaydi va haqiqiy kommunikativ ma'noni anglaydi.

Shu jihatdan qaralganda, implikatura mavjud bo'lishi uchun ko'pincha inferensiya zarur bo'ladi. Chunki yashirin ma'no o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi, uni tinglovchi nutq vaziyati, so'zlovchining niyati, oldingi bilimlar va til birliklarining qo'llanish xususiyatlariga tayangan holda anglaydi. Boshqacha aytganda, inferensiya ma'noni ochuvchi aqliy mexanizm bo'lsa, implikatura ana shu mexanizm yordamida ochiladigan pragmatik mazmundir. Shuning uchun ham ularni alohida emas, balki o'zaro bog'liq jarayon va natija sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oxford English Dictionary. Inference [Электронный ресурс]. – Oxford : Oxford English Dictionary.

2. Oxford English Dictionary. Implicature [Электронный ресурс]. – Oxford : Oxford English Dictionary, [б. г.].
3. Woods J. Inference // The Pragmatics Encyclopedia / ed. by L. Cummings. – London : Routledge, 2010. – P. 94
4. Sperber D., Wilson D. Relevance: Communication and Cognition. – 2nd ed. – Oxford : Blackwell, 1995. – 400 p.
5. Grice H. P. Meaning // The Philosophical Review. – 1957. – Vol. 66. – P. 377-388.
6. Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1989. – P. 117-134
7. Haugh M. The intuitive basis of implicature: Relevance Theoretic implicitness versus Gricean implying // Pragmatics. – 2002. – Vol. 12, № 2. – P. 147.
8. Grice H. P. Utterer's meaning and intentions // The Philosophical Review. – 1969. – Vol. 78. – P. 156.
9. Bach K., Harnish R. M. Linguistic Communication and Speech Acts. – Cambridge, MA : MIT Press, 1979. – P. 41-58.
10. Grice H. P. Logic and conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / ed. by P. Cole, J. Morgan. – New York : Academic Press, 1975. – P. 40-46.
11. Carston R. Thoughts and Utterances: The Pragmatics of Explicit Communication. – Oxford : Blackwell, 2002. . – P. 32.